

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRChIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti**

rektori G.I.Muxamedov



« 2025- yil

**10.00.01 – O'ZBEK TILI IXTISOSLIGI BO'YICHA
OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTIGA KIRISH UCHUN
IXTISOSLIK FANIDAN
DASTUR**

CHIRCHIQ-2025

Kirish

Ushbu dastur tilshunoslik fani predmeti, tarixi, maqsadi va vazifalari, fanning tadqiqot uslublari, obyektlari, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining asosiy metodologik aspektlari, tilshunoslik muammolarini yechishdagi o‘rnini o‘rganishda nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy istiqlol o‘zbek xalqiga nafaqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillk bag‘ishladi, balki milliy o‘zligini anglash, uni jahonga yoyib, IX-XIV asrlardagi shuhrati-yu an’anasini mas’uliyat bilan davom ettirish imkoniyatini ham berdi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” va qator dasturilamal huquqiy hujjatlar xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy, ta’limiy o‘sishini ta’minalash bilan birga o‘zbek olimlarining mustaqil ilmiy yutuqlarini qo‘llab quvvatlash, dunyo miqyosida ommalashtirishga keng yo‘l ochdi.

Til, uning nutqiy voqelanishi, inson omilida tilning ahamiyati serqirra hodisalar bo‘lib, til mohiyatiga turlicha yondshuvlarning natijasidir. Yangicha grammatik talqinlarning asosiy atamalari, tushunchalari, tahlil usullari bilan tanishtirish, yangi tilshunoslik dunyosiga olib kirishni, milliy grammatik talqinlar orqali ziyorilar ongidagi milliy tafakkur tarzi va mafkura ko‘chatlarini sug‘orishga ham xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Til va jamiyat

Tilshunoslik fan sifatida. Nazariy tilshunoslik. Amaliy tilshunoslik. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. Til va ijtimoiy tafakkur. Til va madaniyat. Vilgelm fon Gumboldt va lingvomadaniyatshunoslik. Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi. Tilning ijtimoiy tabaqlananishi. Sotsiolingvistika. Bilingvizm va diglossiya.

Til – asosiy aloqa vositasi. Til va tafakkur

Verbal va noverbal muloqot. Til tabiat. Til mohiyati. Til vazifikasi. Til va tafakkur munosabati. Til va tafakkur lingvistik muammo sifatida. Til tafakkur quroli va vositasi. Psixolingvistika.

Tilning kelib chiqishi. Tillarning o‘zaro hamkorligi va rivojlanish qonuniyatları

Tilning kelib chiqishi haqidagi farazlar. Kishilik jamiyati va til haqidagi nazariyalar. Lisoniy tabaqlananish va qarindosh tillarning tashkil topishi. Elatlar tili. Milliy tillarning rivojlanishi. Tilning ichki va tashqi qonuniyatları.

Til va nutq

Til va nutq. Til va nutq munosabatini izohlash. Til va nutq birliklari. Tilning umumiy va nutqning xususiy hodisa ekanligi.

Til sathlari va uning birliklari

Til sathlari. Fonologik sath. Morfemik sath. So‘z yasalishi. Leksik sath. Morfologik sath. Sintaktik sath. Gap. Tilda “sistema” va “struktura” tushunchalari.

Fonetika. Yozuv

Nutq tovushlari tilning tabiiy materiali sifatida. Nutq tovushlarining akustikasi va artikulyatsiyasi. Nutq tovushlarining tasnifi. Vokalizm va konsonantizm. Unli

tovushlarning tasnifi. Nutqning fonetik bo‘linishi: jumla (fraz), takt, bo‘g‘in, tovush. Enklitika va enkliza hodisasi. Proklitika va prokliza hodisasi. Bo‘g‘in va uning turlari. Intonatsianing vazifasi. Urg‘u va uning turlari. Nutq tovushlarining o‘zgarishi. Reduksiya. Nutq tovushlarining pozitsion va kombinator o‘zgarishlari. Fonema tushunchasi va uning tovushdan farqi. Yozuv haqida umumiy tushuncha. Yozuvning rivojlanish bosqichlari. Alfavit. Grafika. Orfografiya. Yozuvning maxsus turlari.

Leksikologiya

So‘z leksikologiyaning o‘rganish ob‘ekti sifatida. So‘z va leksema. Leksik ma’no va uning turlari. Leksik ma’noning kengayishi va torayishi. So‘zlearning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. Ko‘p ma’nolilik. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Omonimiya. Sinonimlar. Antonimlar. Tabu va evfemizmlar. Etimologiya va “xalq” etimologiyasi. So‘z yasash. Terminologiya. Idiomalar. Frazeologiya. Tilning lug‘at tarkibi. Leksikografiya.

Grammatika

Grammatika. Morfologiya. Morfema va uning turlari. Tilning grammaatik usullari. Affiksatsiya. Agglyutinatsiya va fuziya. So‘zning morfologik va etimologik tarkibi. Tovush almashishlari va ichki fleksiya. Takror (reduplikatsiya). So‘z qo‘silishi. Gapda so‘z tartibi. Urg‘u ko‘chirish. Yordamchi so‘zlar. Ohang. Suppletivizm. Tillarning sintetik va analitik qurilishi. Gramatik kategoriyalar. So‘z turkumlari. Sintaksis. Tilning sintaktik birliklari. Sodda gap tarkibida sintagmalar. Gap. Gap turlari. Gap bo‘laklari. So‘z birikmalari va ularning bog‘lanish usullari. Gapning aktual bo‘linishi.

Semiotika. Til – belgilar sistemasi

Belgi va belgilar sistemasi tushunchasi. Semiotika. Belgilar sistemasining turlari.

Tillar tasnifi

Dunyo tillari. Tillar tasnifi. Tillarning genealogik tasnifi. Tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod. Tillarning tipologik (morphologik) tasnifi. Lingvistik tipologiya. Areal tasnif. Tillarning hududiy bo‘linishi. Bilingvism. Interferensiya hodisasi. Funksional tasnif. Xalqaro tillar.

Lingvistikka fanining tarixi

Qadimgi Hind tilshunosligi. Qadimgi Gresiya va Rim tilshunosligi. Platon. Arastu grammaatikasi. Stoiklar ta‘limoti (eramizdan oldingi III-I asrlar). Falsafiy va grammaatik davrlar. O‘rta asrlarda Yevropa tilshunosligi (476-1492). Arab tilshunosligi. Yevropada uyg‘onish davri tilshunosligi (XV-XVIII asrlar). Umumiy ratsional grammaatika (Por-Royal). Slavyan mamlakatlarida tilshunoslik. XIX asr rus tilshunosligi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik. Komparativistika davrlari. Til antinomiyalari. Til faoliyat sifatida. Til – xalq ruhi. Tillarning rivojlanish bosqichlari. “Yosh grammaatikachilar” maktabi. Leypsig to‘garagi. Moskva maktabi. Qozon maktabi. F. de Sossyur lingvistik nazariyasi. Strukturalizm. Praga lingvistik maktabi. Daniya strukturalizmi (glossematika). Amerika strukturalizmi (deskriptiv lingvistika). Sho‘ro davri tilshunosligi. Hozirgi zamon tilshunosligi.

Zamonaviy tilshunoslik.

Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari

Generativ tilshunoslik. Kognitiv tilshunoslik. Lingvistik falsafa.

Pragmalingvistika. Matn lingvistikasi. Psixolingvistika. Etnolingvistika. Tipologik lingvistika. Lingvomadaniyatshunoslik. Kompyuter lingvistikasi. Ontolingvistika. Zoolingvistika. Biolingvistika. Mentalingvistika. Lingvopoetika. Matematik lingvistika. Kommunikativ tilshunoslik. Neyrolingvistika. Paralingvistika.

Lingvistik tadqiqot metodlari

Tasviriy metod. Qiyosiy-tarixiy metod. Chog'ishtirma metod. Distributiv tahlil metodi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi. Transformatsion tahlil metodi. Oppozitsiya metodi. Komponent tahlil metodi. Stilistik tahlil metodi. Statistik metod. Avtomatik tahlil metodi. Tipologik tahlil metodi.

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari, ildizlari

O'zbek tilining taraqqiyot bosqichlari. Hozirgi o'zbek tili va uning tabiat. Hozirgi o'zbek tilining manbalari, tarixiy ildizlari, dialektal tarkibi. Hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillarning ta'siri. Hozirgi o'zbek tili tushunchasi. Uning lisoniy imkoniyat ekanligi va voqelanish shakllari: adabiy va noadabiy, og'zaki va yozma shakllari, uslubiy ko'rinishlari. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal assoslari. O'zbek tili davlat tili sifatida. Davlat tili tushunchasi va uning yondosh hodisa (milliy til, xalq tili, xalqaro til, rasmiy til kabi)lardan farqi.

Hozirgi o'zbek tilini ilmiy o'rganish bosqichlari. XX asrgacha bo'lgan o'zbek tili ilmi. O'zbek an'anaviy tilshunosligi. O'zbek substansial tilshunosligi. Hozirgi o'zbek tilining yangi lingvistik paradigmalarda ilmiy talqin qilinishi.

Hozirgi o'zbek tili sathlari: fonetik-fonologik sath, leksik sath, grammatic sath. "Hozirgi o'zbek tili" fanining bo'limlari. Til sathlari va tilshunoslik bo'limlari munosabati.

Hozirgi o'zbek tilida lison, nutq, me'yor munosabati. Nutq til imkoniyatlarining lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida voqelangan holati ekanligi. Lisonning umumiylig, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS), nutqning alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat (AHVO) tabiatiga egaligi. Lisoniy va nutqiy birliliklar. Me'yor lison va nutqni bog'lovchi hodisa sifatida.

Hozirgi o'zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari. Paradigmatik munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar. O'zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari: noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipotent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, ularning xususiyatlari.

Hozirgi o'zbek tili hodisalarini tasniflash asoslari. Tasnif belgisi. Tasnifning turlari.

Hozirgi o'zbek tilining fonetik qatlami va fonologiyasi

O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari. Empirik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. O'zbek tili fonologiyasi va uning asosiy birligi. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishi. Fonemaning turlari. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari. Fonemalararo lisoniy ziddiyatlarining voqelanishi.

O'zbek tili fonemalari lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Nutqiy voqelanishda fonema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy sharoit va vaziyatga moslashishi. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi lisoniy omillar: yondosh tovushlar, urg'u, bo'g'in, ohang va boshqalar. Fonemalarning nutqiy voqelanishiga ta'sir qiluvchi nolisoniy omillar (nutqiy vaziyat va sharoit, so'zlovchi shaxsi va boshqalar), ularning lisoniy omillar bilan uyg'unlashuvi.

Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari. Nutq tovushlari fonetik birliklar sifatida. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari. O'zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti. Nutq tovushining akustik belgilari. O'zbek nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti. O'zbek tilida fonetik hodisalar. Kombinator va pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar.

O'zbek tilida bo'g'in (sillabema) va uning xususiyatlari. Bo'g'in turlari. Bo'g'inning o'zgarishi. O'zbek tilida urg'u (aksentuatsiya) va ohang (intonatsiya). Urg'uning turlari. Urg'uning o'zgarishi.

O'zbek tili grafikasi, orfografiyasi va orfoepiyasi

O'zbek tilining yozuv tizimlari. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi va uning xususiyatlari. Kirill alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi va uning xususiyatlari. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvi va uning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek milliy-madanli taraqqiyotidagi roli.

O'zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik prinsip, grafik prinsip, tarixiy-an'anaviy prinsip, differensiatsiya prinsipi (simvolik prinsip), shakliy-an'anaviy prinsip.

O'zbek tili orfoepiyasi. Nutq tovushlari orfoepiyasi. Unli tovushlar orfoepiyasi. Undosh tovushlar orfoepiyasi. Adabiy orfoepiya. O'zlashma so'zlar talaffuzidagi muammolar. Orfoepiya va imlo munosabati.

Hozirgi o'zbek tilining leksik qatlami va leksikologiya

Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema va so'zda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksemaning tuzilishi, tub yoki yasalganligi, ma'no ko'lami, genezisi, qo'llanishi va boshqa belgililariga ko'ra turlari, munosabatlari. Semema va nutqiy ma'no, ularning turlari va xususiyatlari, uzial va okkazional ma'no. Sema va uning xususiyatlari, semaning turlari. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morfologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi. So'zning ma'noviy taraqqiyoti. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Hosila ma'no vujudga kelish yo'llari va usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida. Lug'aviy qator. Lug'aviy mikrosistema. Lug'aviy-ma'noviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy guruh. Lug'aviy-mavzuviy to'da. Lug'aviy-mazmuniy maydon.

O'zbek tilida paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Sinonimik qator. Dominanta. Lisoniy sinonimlar, nutqiy sinonimlar. Sinonimik darajalanish (graduonimiya). Lug'aviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami.

Leksik antonimiya. Antonimik juftlik. Lisoniy va nutqiy antonimiya.

Omonimlar, omoformalar. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va

omograflar. Paronim va paranomaziya.

Giponimiya, graduonimiya.

O'zbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi.

O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. O'zbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar. So'z o'zlashtirish. O'zlashma va olinma so'zlar. So'z olish yo'llari.

O'zbek tili leksemalarining ishlatilish doirasi. Ishlatilish doirasi chegaralangan va chegaralanmagan leksika. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksikaning turlari.

O'zbek tili leksikasining emotsiyal-ekspressivlikka munosabati. Ekspressivlikning ifodalanish usullari.

O'zbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi.

O'zbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik ma'no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlari. Frazemalarning nutqiy voqelanishi. Frazemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (morphologik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar) omillar hamkorligi.

Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Umumiy va maxsus, filologik va qomusiy, alifboli va sistemali, akademik va ta'limiy, bosma va elektron, yopiq (doimiy yangilanmaydigan) va ochiq (doimiy yangilanib turadigan) lug'atlar. O'zbek o'quv leksikografiyasini muammolari va o'quv lug'atlari.

Til korpusi.

O'zbek tili morfemikasi va derivatsiyasi

Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatic morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Grammatic morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tili derivatsiyasi va so'z yasalishi. So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z AHVO sifatida. So'z yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. So'z turkumlarida yasalish va yasama so'zlarning leksemalashishi. So'z turkumlarining ko'chishi. So'z turkumlarida transpozitsiya, konversiya va polifunktionallik.

Hozirgi o'zbek tili grammaticasi. Morfologiya

Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya, grammatic shakllangan so'z uning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatic shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatic ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatic ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari.

O'zbek tili grammatic (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriylar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi

kategoriylar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriylar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

O'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'r ganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, g'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Fe'l. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'lning lug'aviy-grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'lning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan ko'rinishlari; tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.

Fe'lning tasniflovchi kategoriylari. Nisbat kategoriysi va uning shakllari tizimi. Nisbat kategoriysi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Nisbat kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriysi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'lning o'zgalovchi kategoriysi va uning shakllari: sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi. O'zgalovchi kategoriya va shakllari umumiy grammatik ma'nosi, ularning substansial mohiyati sifatida. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'lning harakat tarzi kategoriysi murakkab tarkibli kategoriya sifatida. [Ravishdosh+ko'makchi fe'l] harakat tarzi kategoriysi shakli sifatida. Harakat tarzi kategoriysi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Harakat tarzi kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Fe'lning nokategorial shakllari tizimi.

Ot va uning o'r ganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Otning tasniflovchi kategoriysi. Son kategoriysi va uning shakllari. Son kategoriysi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Otning nokategorial shakllari.

Sifat va uning o'r ganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriysi sifatida. Daraja kategoriysi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.

Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Son va uning o‘rganilish tarixi. Sonning mustaqil so‘z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug‘aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug‘aviy ma’noga ta’sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg‘unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Ravish va uning o‘rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. O‘zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug‘aviy-grammatik guruhlari.

Taqlid va uning o‘rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. O‘zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug‘aviy-grammatik guruhlari.

Olmosh va uning o‘rganilish tarixi. Olmoshning o‘ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o‘rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari: egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintiktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Egalik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Egalik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nosи. Egalik kategoriyasining turli mustaqil so‘z turkumlarida qo‘llanish xususiyatlari. Egalik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kelishik kategoriyasi va uning shakllari paradigmasi. Kelishik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nosи. Kelishik kategoriyasining turli mustaqil so‘z turkumlarida qo‘llanish xususiyatlari. Kelishik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Shaxs-son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nolari. Zamon kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nolari. Tasdiq-inkor kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nolari.

Kesimlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma’nosи. Kesimlik kategoriyasining turli mustaqil so‘z turkumlarida qo‘llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi umumiy grammatik ma’nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Bog‘lama.

Yordamchi so‘zlar va ularning turlari: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.

Ko‘makchi, uning o‘rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko‘makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Bog‘lovchi, uning o‘rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog‘lovchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Yuklama, uning o‘rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklama lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg‘unligi.

So‘z-gaplar, ularning o‘rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. So‘z-gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Sintaksis

Sintaksis va uning o‘rganish predmeti. Sintaktik birliklar: so‘z birikmasi va gap. O‘zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so‘z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ularning qurilish xususiyatlari.

Valentlik, uning tildagi mohiyati. Valentlik va sintaktik aloqa UMIS va AHVO dialektikasining sintaktik sathdagi voqelanishi sifatida.

Erkin birikmalar va uning turlari. So‘z birikmasi, uning xususiyatlari, tarkibi, tiplari va turlari, yondosh hodisalarga munosabati. So‘z birikmasi lisoniy sintaktik qolipining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. So‘z birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: ma’noviy, shakliy va joylashuv omilari. So‘z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari.

Gap va uning qurilish turlari. Sodda gap, uning lisoniy va nutqiy xususiyatlari. Sodda gap qolipi va uning turlari. Sodda gapning lisoniy belgilar asosidagi turlari: yig‘iq va yoyiq gap, bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gap. Sodda gap qoliplari. Gap bo‘laklari. Gap bo‘laklarida darajalanish (kesim – ega – hol – to‘ldiruvchi – aniqlovchi). Gap markazi. Gap va so‘z kengaytiruvchilari.

Kesim – gap markazi va uning uyuştiruvchisi. Kesimning turlari: mustaqil va nomustaqil kesim, sodda va murakkab kesim. Fe’l kesim va ism kesim. Fe’l kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish imkoniyatlari kengligi. Fe’l kesimning tuzilish turlari va ko‘rinishlari. Ism kesim, uning grammatic shakli, ifodalanishi. Bog‘lama, uning ko‘rinishlari. Ism kesim, unda kesimlik kategoriyasining voqelanish xususiyatlari. Fe’l kesimning tuzilish turlari va ko‘rinishlari.

Ega, uning gap qurilishidagi o‘rni. Egali va egasiz gaplar. Eganing ifodalanishi.

Hol, uning gap qurilishidagi o‘rni, ma’noviy turlari, ifodalanishi.

To‘ldiruvchi, uning gap qurilishida so‘z kengaytiruvchisi sifatidagi o‘rni, ifodalanishi. To‘ldiruvchilarning turlari.

Aniqlovchi, uning gap qurilishidagi o‘rni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.

Sodda gapning murakkablashuvi: gapning ajratilgan bo‘laklari, uyushiq bo‘laklar, undalma, kirish va kiritma kengaytiruvchilar.

Sodda gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Qo‘shma gap. Qo‘shma gap tasnifi asoslari. Qo‘shma gapning qurilishiga ko‘ra tasnifi: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qo‘shma gaplar. Qo‘shma gapning tarkibidagi bog‘lovchi vositalariga ko‘ra tasnifi: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog‘lovchilar vositasida,

ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida, nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma gap.

Qo‘shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma’noviy munosabatga ko‘ra turlari: qismlari payt, o‘rin, sabab, birin-ketinlik, bir vaqtdalik, izohlash, qiyoslash va boshqa ma’noviy munosabatlar asosida bog‘langan qo‘shma gaplar. Qo‘shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko‘ra turlari: kesim tobe gapli, ega tobe gapli, hol tobe gapli, to‘ldiruvchi tobe gapli, aniqlovchi tobe gapli qo‘shma gap. Qo‘shma gap tarkibiy qismlarining irreallikka munosabatiga ko‘ra tasnifi.

Murakkab qo‘shma gap. Murakkab qo‘shma gaplarda sintaktik aloqa turlari.

Qo‘shma gap lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

O‘zga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Uyushgan gap, uning sodda va qo‘shma gap oralig‘ida tutgan o‘rni. Uyushgan gapning lisoniy-sintaktik qolipi, turlari, nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar munosabati.

Murakkab sintaktik butunlik tushunchasi. Murakkab sintaktik butunlik matnning tarkibiy qismi sifatida. Murakkab sintaktik butunlik tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalar. Olmosh, so‘z-gaplarning murakkab sintaktik butunlikdagi o‘rni. Murakkab sintaktik butunlik va mikrotekst. Murakkab sintaktik butunlik va abzas.

Punktutsiya

Tinish belgilari yozma nutq mohiyatini anglashning muhim vositasi sifatida. O‘zbek punktuatsiyasi tarixi. I-VIII asrlar yozuvlarida tinish belgilari. IX-XIX asrlarda tinish belgilarining turlari va xususiyatlari. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrning oxirlarigacha bo‘lgan davrda tinish belgilari. XX asrning 90-yillardidan hozirgacha bo‘lgan davrda tinish belgilarining xususiyatlari. Punktuatsiya qoidalarini belgilashda nutq mazmuni, qurilishi hamda intonatsion xususiyatlariga asoslanish. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti va punktuatsiya muammolari. Punktuatsiya va ohang. Punktuatsiya va sintaksis. Axborot texnologiyalari taraqqiyotida punktuatsiya muammolari.

Tinish belgilarining qo‘llanishi: qo‘llanish o‘rni va usuliga ko‘ra, tuzilishi va vazifasiga ko‘ra turlari. Tinish belgilarining takror va qator ishlatilishi.

Tinish belgilari vazifadoshligi. Vergul – tire vazifadoshligi. Qo‘shtirnoq – tire vazifadoshligi. Ikki nuqta – vergul vazifadoshligi. Muallif punktuatsiyasi.

O‘zbek tilshunosligi shakllanishining ilk davri

“O‘zbek tilshunosligi tarixi” kursi predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari. Fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalar. Fanning boshqa fanlar bilan munosabati. Kursni o‘qitishning muhimligi. O‘zbek tilining o‘zbek xalqi shakllanishidagi o‘rni, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabat, tilning jamiyatdagi ko‘rinishlari: adabiy til va dialektlar; o‘zbek adabiy tilining lahjaviy asoslari. Tilshunoslik fani bo‘limlari, ular o‘rtasidagi aloqadorlik. Arablar istilosи davrida

tilshunoslik. O‘zbek tilshunosligi tarixining shakllanishida arab tilshunosligining o‘rni.

Abu Nasr Forobiyning (873-950) lingvistik qarashlari. Uning hissiy va idrokiy bilish, umumiylit-xususiylik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqidagi fikrlari. “Falsafatu Aristutalis”, “Fozil odamlar shahri”, “Fanlar tasnifi haqida so‘z” asarlari tahlili.

Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) lingvistik qarashlari. Uning “Saydana”, “Geodeziya” asarlari tahlili. “Saydana”da 4500 dan ortiq turli xil o‘simliklar nomlarining izohlanishi, asarning “Lug‘at” ekanligi.

Ibn Sinoning (980-1037) lingvistik qarashlari. “Asbobi hudud al hudud” asari haqida. Asarning umumiy fonetika masalalariga bag‘ishlanganligi. Ibn Sinoning A.S.Trubeskoydan bir necha asr oldin korrelyativ undoshlarni ajratishga e’tibor berganligi. (k-g, q-g’).

Qoraxoniylar davrida tilshunoslik

(Mahmud Qoshg‘ariyning tilshunoslik merosi)

Mahmud Qoshg‘ariyning hayoti va faoliyati (XI asr). Uning “Devonu lug‘otit turk” asari tahlili: asarning topilishi, tarjimasi haqida. Mahmud Qoshg‘ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi sifatida. Lingvogeografik qarashlari, fonetik qarashlari, leksika va leksikografiyaga oid qarashlari; so‘z yasalishi, morfologiyaga oid qarashlari. Asarning tuzilishi. “Devonu lug‘otit turk”ning o‘zbek tilshunosligi tarixiy taraqqiyotidagi o‘rni.

Mahmud Zamahshariyning lingvistik merosi

Olimning hayoti va ijodiy faoliyati haqida. Olimning “Al mufassal fi san‘at al i’rab” – Fleksiya san’ati haqida. Mufassal kitob. (“Al mufassal”) asari haqida. “Muqaddimat-ul adab” asari. Asarning besh qismdan iborat ekanligi: 1) ot; 2) fe’l; 3) bog‘lovchilar; 4) ot o‘zgarishlari; 5) fe’l o‘zgarishlari. Asarda ismlarning mavzuviy guruhlarga ajratish tamoyili asosida berilishi. Mahmud Zamahshariy ilmiy-pedagogik faoliyatining baholanishi arab grammatikasini yaratishdagi o‘rni.

Mo‘g‘ullar istilosidavrida o‘zbek tilshunosligi (1206-1400)

Bu davrda o‘zbek va uyg‘ur tillarining mustaqil tillar sifatida ajralishi. Noma’lum shaxs tomonidan yozilgan “At tuhfatuz zakiyatu fi- lug‘atit turkiya” – “Turkiy tillar haqida noyob tuhfa” (“At-tuhfa”) asari tahlili.

Ergash Fozilov va M.T.Ziyaevalarning “Izbyiskanniy dar tyurkskomu yazыku” (T., 1978 y.) asari. Asarda mentalingvistik qarashlar (tilning ijtimoiyli haqida) fonetika va grafika, grammatic masalalar bo‘yicha qarashlar; ot va fe’lning grammatic xususiyatlari, yordamchi so‘zlar haqidagi qarashlari. Asarning yozilgan joyi masalasi bo‘yicha qarashlar.

Temuriylar davrida o‘zbek tilshunosligi

Davrga tavsif. Alisher Navoiyning lingvistik merosi. Navoiy falsafasida umumiylit-xususiylik, mohiyat-hodisa munosabatlari; uning imkoniyat va voqelikning til va nutqqa tegishliligi haqidagi qarashlari. Olimning va tillarning paydo bo‘lishi haqidagi qarashlari. Alisher Navoiy chog‘ishtirma tilshunoslik asoschisi sifatida. A.Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari tahlili. Fonetika, leksika, so‘z yasalishiga doir qarashlari, grammatic qarashlari. A.Navoiyning til va nutq madaniyati saboqlari (“Mahbub ul-qulub” va boshqa asarlari misolida).

Zahiriddin Muhammad Boburning lingvistik qarashlari

“Boburnoma” asarida nutq madaniyatiga oid fikrlar. Xumoyunga yozgan maktubida nutqqa oid qarashlarining ifodalanishi. Boburning imloga, yozuvga bo‘lgan munosabati. “Boburnoma” so‘zлarni “lug‘aviy maydon” asosida guruhlashga e’tibor qaratilgan asar sifatida.

O‘rta asr o‘zbek leksikografiyasi taraqqiyoti

Toli Imoniyning “Badoyi al-lug‘at”, “Sangloh”, “Lug‘ati atrakita”, “Xulosai Abbosi” (“Sangloh”ning qisqa varianti), Muhammad Rizo Xansarning “Muntaxob al-lug‘at”, “Abushqa” lug‘atlarining yuzaga kelishi. Mavzuviy lug‘atlarning yaratilishi. Muhammad Changiyning “Kelurnoma” asari tahlili.

Xonliklar davri o‘zbek tilshunosligi

Abulg‘ози Bahodirxonning “Shajarai tarokima” (1658-1661) va “Shajarai turk” (1663-1664 y.) asarlari turkiy xalqlarning kelib chiqishi, tarqalishi bo‘yicha izoh beruvchi noyob obida ekanligi. Olimning lingvistik qarashlari, atamalar etimotologiyasiga doir kuzatishlari.

Chor Rossiyasi va Sho‘rolar hukmdorligi davrida o‘zbek tilshunosligi

XIX asr oxirida va XX asr boshlarida yaratilgan o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha dastlabki asarlar. O‘zbek tilini o‘rganishga ko‘maklashadigan o‘quv qo‘llanma va lug‘atlarning nashr etilishi. N.Ostroumov, V.Nalivkin, M.Nalivkina, I.A.Belyaev, M.A.Terentev, V.A.Alekseev, S.Lapin kabi shaxslarning bu boradagi xizmatlari.

XX asr boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) “Risolai asbobi savod” (1904 y.), “Ilk o‘zbek alifbolarining yuzaga kelishi” (1875-1919) “Ikki emas, to‘rt til kerak”, “Til masalasi”, “Sart so‘zi majhuldir”, “Sart ma’lum bo‘lmadi” kabi maqolalari. “Kitobat ul-atfol” kabi (1908 y.) asarlari mazmuni.

Avloniyning lingvistik qarashlari (1878-1934 y.). Uning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Alifbo” asarlari.

A.Fitratning tilshunoslik merosi (1886-1938). “Sarf” va “Nahv” asarlari “Tilimiz maqolasi” tahlili. “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining o‘zbek adabiy tili uchun kurashi.

Ashurali Zohiriyning lingvistik merosi (1885-1937). Uning “Imlo” (1916 y.) kitobi. Olimning o‘zbek adabiy tilining grammatik me’yorlari to‘g‘risidagi qarashlari.

Ye.D.Polivanov – mashhur turkolog olim. Uning hayoti va ijodiy faoliyati. “Toshkent dialektining tovushlar tarkibi” (1922 y.) “O‘zbek tilining qisqacha grammatikasi” (I, II, III qismlar) asarlari haqida.

XX asrning 40-yillari va ikkinchi yarmi o‘zbek ilmiy tilshunosligi taraqqiyoti

Faxri Kamol, U.Tursunov, G‘ози olim Yunusov, A.G‘ulomov, O.Usmonov, Sh.Shoabdurahmonov, T.Ibragimov, F.Abdullaev, M.Asqarova, G‘.Abdurahmonov kabi olimlarning lingvistik faoliylari haqida.

A.G‘ulomov va o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti. Uning “O‘zbek tilida aniqlovchilar” (1940 y.), “O‘zbek tilida kelishiklar”, “Badiiy asar tili haqida”

(1941 y.), “O‘zbek tilida tarixiy so‘z yasalishi muammolari” (1955, doktorlik dissertatsiyasi), “Sintaksis” bo‘yicha asarlari tahlili.

A.Hojiev, S.Ibrohimov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, J.Muxtorov, Mutualibov, V.S.Reshetov, Sh.Rahmatullaev, M.Mirtojiev, I.Qo‘chqortoev, N.Mamatov, A.Mahmudov, J.Omonturdiev kabi olimlarning o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari to‘g‘risida.

Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi

Respublikamizda til siyosatida mavjud bo‘lgan salbiy holatlarga chek qo‘yilishi. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyotiga erkin yo‘l ochilishi. O‘zbek tilining leksikologiyasi va terminalogiyasining rivojlanishida asosiy omil bo‘lgan ichki imkoniyatlarning kuchayishi. B.Bafoev, T.Mullaev, S.G‘oibov, S.Karimov, Yo.Tojiev, A.Berdaliev, A.Nurmonov, H.Ne’matov, N.Mahmudov, R.Rasulov, T.Mirzaqulov, Z.Do‘simov, E.Begmatov, H.Dadaboev, M.Jo‘raboева, M.Narimonova kabi olimlarning tilshunoslik ishlari.

Adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O‘., Majidova R. Tilshunoslik asoslari (OTM uchun darslik). – Toshkent: TDPU, 2013.
2. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik (darslik). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish (darslik). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009.
4. Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
8. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
3. Nurmonov A. va b. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya (o‘quv qo‘llanma). – T., 2001.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – T., 2001.

5. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2001.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: 2002.
7. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). – Toshkent: 2006.
8. Endryu Radford, Martin Atkinson, David Britain, Harald Clashen, Andrey Spencer. Lingvistik an intodakshn. – Nyu-York, Kolombiya universiti press, 2009.
9. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fonetikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2009.
10. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
11. Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
12. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
13. Nazarov K., Egamberdiev B. O'zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchui qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
14. Ne'matov H, Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
15. Ne'matov H, Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
16. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
17. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.
18. O'rionboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. (O'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.
19. Hojiev A. O'zbek tili so'z yasalishi tizimi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakul'tetlari o'qituvchi va talabalari uchun qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
20. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009.

Elektron manbalar

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www.uforum.uz
4. www.literature.uz

10.00.01-O‘zbek tili ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihonlari uchun savollar majmuasi

1. Til aloqalari: bilingvism va diglossiya.
2. Til aloqalari: interferensiya.
3. Ingliz tili va Hind-Yevropa oilasi.
4. Lingvistik tadqiqot metodlari.
5. Tilshunoslikda zamonaviy yo‘nalishlar.
6. Grammatikadagi tarixiy o‘zgarishlar (ingliz, nemis, ispan, fransuz, rus tillari).
7. Fikr ifodalashning verbal va noverbal vositalari.
8. Kommunikativ tilshunoslik. Matn va uning turlari.
9. Yozuv taraqqiyoti bosqichlari.
10. Dunyodagi alfavit turlari.
11. Lingvistik tipologiya bo‘yicha nazariyalar.
12. So‘z – lingvistik belgi sifatida.
13. Dunyo tillarida sintaksisning o‘ziga xos xususiyatlari.
14. Aralash tillar: pijin va kreol tillar.
15. Til - eng muhim aloqa vositasi.
16. Sotsiolingvistika masalalari.
17. Tillarning hududiy bo‘linishi. Areal tasnif.
18. Qiyosiy-tarixiy metod va tillarning genealogik tasnifi.
19. Turli tizimli tillarda so‘z yasalishi.
20. Adabiy tillar, ularning tipologik farqlanishi, milliy-tarixiy omillari.
21. Til va jamiyat.
22. Leksikologiya.
23. Tillarning tipologik (morphologik) tasnifi.
24. Til va tafakkur.
25. O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.
26. O‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmalar.
27. Hozirgi o‘zbek tilida lison, nutq, me’yor munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.
28. Hozirgi o‘zbek tilida lisoniy munosabat va uning turlari. Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.
29. Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.
30. O‘zbek tilshunosligida aksentuatsiya va sillabika. Urg‘u va bo‘g‘in.
31. O‘zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti.
32. O‘zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari.
33. Leksik sath va uning birligi lingvistik muammo sifatida.
34. Leksemaning semantik strukturasi. Semema va sema munosabati. Sema turlari. Monosemiya va polisemiya.

35. Leksik-semantik sistemalar: lug‘aviy-ma’noviy guruh, lug‘aviy-mazmuniy to‘da, lug‘aviy-mazmuniy maydon.
36. O‘zbek tilidagi leksemalarning shakl va ma’no munosabatlari: omonimiya, sinonimiya, antonimiya, graduonimiya, giponimiya, partonimiya.
37. O‘zbek tili leksemalari tasnifi.
38. O‘zbek tili frazeologizmlari.
39. O‘zbek leksikografiyasi va lug‘atchiligi. Umumiy va maxsus lug‘atlar. Akademik, ommabop va o‘quv lug‘atlari.
40. Morfema, uning turlari, lisoniy xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.
41. O‘zbek tili derivatsiyasi va so‘z yasalishi.
42. Grammatik shakl, grammatik ma’no va grammatik kategoriya.
43. O‘zbek tilida so‘z turkumlari. Mustaqil so‘z turkumlari.
44. Fe’l, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
45. Ot, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
46. Sifat, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
47. Son, uning grammatik xususiyatlari va tasniflovchi kategoriyalari.
48. Ravish va uning grammatik xususiyatlari.
49. Taqlid va uning grammatik xususiyatlari.
50. Olmosh va uning grammatik xususiyatlari.
51. O‘zbek tilida sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriylar. Egalik kategoriysi, uning umumiy grammatik ma’nosи va shakllari paradigma. Egalik kategoriyasining mustaqil so‘z turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
52. Kelishik kategoriysi, uning umumiy grammatik ma’nosи va shakllari paradigma. Kelishik kategoriyasining mustaqil so‘z turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
53. Kesimlik kategoriysi, uning umumiy grammatik ma’nosи va shakllari paradigma. Kesimlik kategoriyasining mustaqil so‘z turkumlarida voqelanish imkoniyatlari.
54. O‘zbek tilida so‘z-gaplar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
55. Yordamchi so‘zlar: tizimi, turlari va substansial-grammatik xususiyatlari.
56. Sintaktik birliklar. So‘z birikmasining lisoniy sintaktik xususiyati va bog‘lanish omillari.
57. Valentlik va sintaktik aloqa lison va nutq dixotomik bo‘linishida.
58. Sodda gapning lisoniy sintaktik xususiyatlari va nutqiy voqelanishi.
59. Gap bo‘laklari. So‘z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilari.
60. Qo‘shma gap, uning lisoniy turlari va xususiyatlari.
61. O‘zga gapli sintaktik hodisalarning lisoniy qurilish xususiyatlari.
62. Uyushgan gap va uning til lisoniy sintaktik sistemasidagi o‘rni.
63. Tinish belgilari: turlari va vazifalari. Tinish belgilarining qo‘llanishidagi muammolar.
64. Tilning ijtimoiy vazifasi. Adabiy til tabiatni.
65. O‘zbek yozuvi tarixiy taraqqiyoti.
66. “At-tuhfa” lug‘ati va uning tuzilish xususiyatlari.


67. Temuriylar davrida o‘zbek tilshunosligi. Boburning lingvistik qarashlari.
68. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida til va til ta’limi masalalari.
69. O‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi va yutuqlari.
70. O‘zbek an’anaviy tilshunoslik maktablari, uning namoyandalari.
71. O‘zbek tilshunosligining nazariy bosqichi.
72. O‘zbek tilshunosligida dialektologiyaga doir ishlarning tahlili.
73. Abu Nasr Forobiyning “Mohiyat-hodisa dialektikasi”, “Falsafatu Aristutalis” asarlari. “Fozil odamlar shahri”, “Fanlar tasnifi haqida so‘z” asarlari tahlili.
74. Abu Rayhon Beruniyning “Saydana”, “Geodeziya” asarlarida lingvistik fikrlar.
75. Ibn Sinoning “Asbobi hudud al hudud” asarining umumiy fonetika masalalariga bag‘ishlanganligi.
76. Mahmud Zamahshariyning lingvistik merosi.
77. Ilk o‘zbek alifbolari va imlo kitoblarining yuzaga kelishi.
78. Istiqlol davri o‘zbek tilshunosligi.

Fakultet dekani



R.A.Ikramov

Kafedra mudiri



O'R.Saidov